QASHQADARYO VILOYATI
QAMASHI TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180500, Qamashi shahri, Amir Temur ko‘chasi, 1-uy. Tel: (375) 53-24-490, t.qamashi@exat.uz

2024 - yil 30 - may 174-4-58-Q/24 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 140-sonli qarori ijrosini ta’minlash, tumandagi barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablariga maktab yoshidagi bolalarni to‘liq qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qamashi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi (B.Haydarov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (N.Abrayeva), tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

3. Tumandagi umumta’lim muassasalar rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblansin.

4. Tumandagi o‘quvchi soni quvvatiga nisbatan ortib ketib, 1,6 koeffitsiyentdan yuqori bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga 2024-2025 o‘quv yilidan boshlab 1-sinf uchun tuman hokimining mazkur qarori bilan biriktirilgan mikro hududlardan boshqa hududlarda istiqomat qiluvchi maktab yoshidagi bolalarni qabul qilinmasligi belgilansin.

5. Mazkur qaror “Qamashi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Qamashi tuman hokimining 2023-yil 3-iyundagi *“Qamashi tumanida 2023-2024 o'quv yilida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”* 195-4-58-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Haydarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Usmonov**

Qamashi tuman hokimining
2024-yil 30-maydagi
174-4-58-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi ta'im muassasalarining mikrohududlari to'g'risida

MA'LUMOT











